

ISSN (E): 2181-4570

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Artikova Iroda Akmalovna

Samarqand shahar 16-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diqqat va o'qish jarayonida diqqat jarayonining ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni rivojlantirish usullaridan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Diqqat, diqqatni rivojlantirish, diqqatning o'sishi, fikrlash.

**Аннотация.** В этой статье объясняется важность процесса внимания в обучении и обучении. Также приведены примеры методик развития внимания у младших школьников.

**Ключевые слова.** Внимание, развитие внимания, рост внимания, мышления.

**Abstract.** This article explains the importance of the attention process in teaching and learning. Examples of methods for developing attention in younger schoolchildren are also given.

**Keywords.** Attention, attention development, attention growth, thinking

Bugungi kunda jamiyatning shiddatli o'sishi, fan texnikaning rivojlanishi, amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalari barcha sohalar kabi ta'lim-tarbiya jarayonlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Hozirgi sharoitda ta'lim tizimi, uning barcha bo'g'inlarini uzviylik va uzlusizlik sifatida qarash talab etilmoqda. Bu bo'g'inlar bolalarning maktabgacha tarbiya olishini, umumiyligini va maxsus bilimga, professional tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlarning shaxs sifatida ma'naviy va axloqiy kamol topishini, ularning jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi. Maktab jamiyatning barcha ehtiyojlarini to'la qondirish uchun javobgar bo'lgan muhim bo'g'in hisoblanadi va bu dargoh insonni shakllantirish uchun mas'uldir.

Ma'lumki, shaxs bir butun shaklda rivojlanadi. Bir butun ta'lim-tarbiya jarayoniga xos vazifa insonda nafaqat aqliy, balki layoqat va malakani ham shakllantiradi. Bir butunlikda bo'lgan jarayon o'quvchida qiziqish hissini tarkib toptiradi. Shaxsni shakllantirishdagi vazifalarning o'zaro birligini ta'minlashda, avvalo, maqsad, vosita va kuzatilgan natijalarning birligi ham nazarda tutiladi.

Kichik mакtab o'quvchisini fikr doirasini kengaytirishda, undagi bilish jarayonlarining qay darajada rivojlanganligining o'rni va ahamiyati kattadir.

Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllanishida diqqat muhum ahamiyat kasb etadi.

Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishidan iborat bilish jarayonidir. Yo'naltirilish deganda, psixik faoliyatning tanlovchilik tabiatni, ob'ektni ixtiyoriy va beixtiyoriy tanlash tushuniladi. O'quvchi mакtabda o'qituvchi gapirayotgan gaplarni eshitib o'tirganda, u mana shu eshitib o'tirish faoliyatini ongli ravishda tanlab olgan, uning diqqati ongli ravishda qo'zg'algan, shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. O'quvchining biron boshqa narsaga chalg'imasdan o'quv materialining mazmuniga zehn qo'yib o'tirishida uning psixik faoliyatining yo'nalishi ifodalanadi.

Tajribadan ma'lumki, bolalarda ixtiyorsiz diqqat durustgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o'sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quv materiallarining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to'planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobjiy ta'sir etadi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarni o'qitishda ko'rsatmalilikdan keng foydalaniлади. Bu tadbir birinchidan, bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan, materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga, uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Mahlumki, ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi bilan bevosita bog'lanib ketsa, tabiiyki, ular faqat maroqli, quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo'lib qoladilar. Natijada o'ta nozik, yani tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustahkamlanadi. Odlatlanish murakkab o'quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun K.D.Ushinskiy, bolani faqat o'zini qiziqtirgan narsa bilan emas, balki uni qiziqtirmagan narsa bilan ham shug'ullanishga o'rgating, bola o'z burchini bajarishdan qanoatlanish uchun ishlaydigan bo'lsin, deb uqtirgan edi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning yetarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ular diqqatlarni muayyan narsalarga qarata olmaydilar va obektga uzoq muddat qarolmaydilar. Qator tadqiqotlar birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa diqqat

bilan o'tira olishlari mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham dars mashg'ulotlarida qisqa tanaffuslar o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda diqqatning rivojlanish darajasini va uning xususiyatlarini diagnostika qilishning bir necha usullari mavjud. Quyida ulardan namunalar keltirib o'tamiz.

**"Rasmda nima ko'rsatilgan?"** Bola rasmni diqqat bilan ko'rib chiqishi va savollarga javob berishi kerak.

- Qaysi hayvonlar biz bilan yashaydi va qaysi biri issiq mamlakatlarda?

Rasmda qanday hayvonlar tasvirlangan? Bolaning rasmga qanday qarashiga e'tibor berish lozim: faol, qiziqish, diqqatini jamlaganligi.

**"Toping va kesib tashlang".** Rasmda oddiy raqamlar tasodifiy tartibda ko'rsatilgan. Sinovdan oldin bolaga ko'rsatmalar beriladi:

"Keling, siz bilan aql o'yini o'ynaymiz. Men sizga o'zingiz bilgan narsalar chizilgan rasmni ko'rsataman. Men "boslash" so'zini aytganimda, siz qatorlar bo'ylab qidirishni boshlaysiz va men nomlagan narsalarni kesib tashlaysiz. Men "to'xta" degan so'zni aytmagunimcha, izlash va chizish kerak. Bu vaqtida siz to'xtab, oxirgi marta ko'rgan ob'ektning tasvirini ko'rsatishingiz kerak. Shundan so'ng, men sizning rasmingizda to'xtagan joyni belgilayman va yana "boslash" so'zini aytaman. Shundan so'ng, siz xuddi shunday qilishni davom ettirasiz, ya'ni chizmadan berilgan ob'ektlarni qidirib topasiz va kesib o'tasiz. Bu men "tugatish" so'zini aytgunimcha bir necha marta sodir bo'ladi. Ish vaqt 2,5 daqiqa bo'lib, uning davomida bolaga ketma-ket besh marta (har 30 soniyada) "to'xtatish" va "boslash" so'zlari aytildi. Keyinchalik, har bir vaqt oralig'i uchun topilgan narsalar soni hisoblanadi: ularning taxminan teng soni diqqatning yuqori barqarorligini ko'rsatadi.

**"Qizil-qora stol"** usuli. Mantiqiy yodlashdan tashqari, tasodifiy tartibda joylashtirilgan 1 dan 12 gacha qizil va qora raqamlar bilan jadval mavjud. Boladan stolda birinchi navbatda 1 dan 12 gacha qora raqamlarni o'sish tartibida, keyin esa 12 dan 1 gacha bo'lган qizil raqamlarni ko'rsatish so'raladi (bajarilish vaqt ikkala holatda ham belgilanadi). Keyingi vazifa: navbatma-navbat qora raqamlarni o'sish tartibida va qizil raqamlarni kamayish tartibida ko'rsating (vaqt ham belgilangan). Diqqatning almashinish ko'rsatkichi uchinchi vazifadagi vaqt bilan birinchi va ikkinchi vazifalardagi vaqt yig'indisi o'rtaсидаги farq bo'ladi: u qanchalik kichik bo'lsa, diqqatning bu xususiyati shunchalik rivojlangan bo'ladi.

**"Turli hisob"**. Bola bir vaqtning o'zida 20 dan 1 gacha ovoz chiqarib sanash bilan birga 1 dan 20 gacha raqamlarni yozishi kerak. Variant: bola 1 dan 31 gacha ovoz chiqarib sanashlari kerak, uchlik yoki uchga karrali raqamlarni chiqirmasdan, balki so'zini aytishi kerak. "Men adashmayman". Agar bola darhol adashib keta boshlasa, diqqatni taqsimlash yomon rivojlangan.

**"Uzuklar" usuli.** Jadvalda turli qismlarda bo'sh joy bo'lgan halqalar ko'rsatilgan. Bola imkon qadar tezroq (masalan, o'ngda va tepada) ko'rsatilgan joylarda bo'sh joy bo'lgan ikki turdag'i halqalarni topib, kesib tashlashi kerak. Ish vaqtı - 2 daqiqa (6-7 yoshli bola uchun 10-11 qator).

Boshlangich sinflarda diqqatni rivojlantiruvchi o'yinlar.

Bu mashqlar bush o'zlashtiruvchi yoki diqqati tarqoq o'quvchilar bilan o'tkazilishi mumkin.

### **1-mashq."Tugmachalar o'rini"**

Bu o'yinda 2 ta o'quvchi ishtiroy etadi. Ikki xil rangda tugma ishlataladi, tugmalar turlicha bo'lishi kerak. Har bir o'yinchining oldida o'yin maydonchasi turadi (bunda shaxmat doskasidan va shaxmat toshlaridan foydalanish mumkin). Birinchi o'yinchi o'uzining maydoniga 3 ta tugmani quyadi, ikkinchi o'yinchi tugmani qayerda ekanligini ko'rib va eslab qoladi.

Birinchi o'yinchi tugmalarni qog'oz bilan yashiradi, ikkinchisi o'zining o'yin maydonida tugmachalarini xuddi shunday qilib joylashtiradi. Har o'yin davomida tugmachalar soni ko'paytiriladi. Psixolog o'yin mashqini kuzatib turadi. Bu o'yinda faqat diqqat emas, balki xotira, tasavvur, tafakkur rivojlanadi.

### **2-mashk."Kapalakchalar"**

Bu mashq uchun 9 xonali (3X3) jadval va plastilin kerak buladi. Plastilin kapalakcha rolini bajaradi. Kapalak jadvalning o'rtasiga quyiladi. Psixolog o'quvchidan jadval katakchalarida kapalakni harakatlantirishini suraydi. O'quvchi o'yin jarayonida jadvalga qaramay, kapalakni yuqoriga, pastga, o'ngga, chapga yurg'izadi. Lekin jadval chiqiklaridan chetga chiqmaslik kerak. Mashg'ulot bir necha marta takrorlanadi, keyingi mashg'ulotlarda katakchalar 4x4 ga ko'paytirilishi mumkin.

### **3-mashq. "Kim chaqqon"**

Mashqda o'quvchilarga ma'lum bir matn beriladi. Matnda ko'p uchraydigan "O" yoki "A" harfini chizib chiqish suraladi. Vaqt belgilanadi 15 yoki 20 daqiqa. Psixolog

natijalarni tekshirib chiqadi. Kam xato qilgan o'qichilar rag'batlaniriladi.

#### 4-mashq. "Kim sezgir"

Bolalarga qisqaroq gap o'qib eshittiriladi. Shu bilan birga qalam bilan stol ustiga urib turiladi. Bolalar gapni eslab qolishlari, stol ustiga necha marta urilganini ham aytib berishlari kerak. Bu mashq musobaqa tarzida o'tkazilsa ham bo'ladi. Kim to'g'ri sanab chiqsa, usha g'olib bo'ladi. Mashq jarayonida gaplar soni ko'paytiriladi. Matn kengaytirilishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda diqqatni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirishingiz mumkin:

O'quvchilarga qiziqishlarni oshirish: O'quvchilarni o'quv fanlari va mavzulariga qiziqishni oshirish uchun ilova qilishingiz, ulardan so'zlashish va fikr almashishlarini oshirishingiz yoki qiziqishlarni oshiradigan o'quv usullaridan foydalanishingiz mumkin. Misol uchun, real hayotdan misollar, yangiliklar, interaktiv darslar kabi.

Interaktiv o'quv usullaridan foydalanish: Sinfda diqqatni oshirishning bir usuli, interaktiv o'quv usullaridan foydalanishdir. O'quvchilarni darsga jalb qilish uchun interaktiv darslar, elektron darsliklar, videolar va multimedia vositalardan foydalanishingiz mumkin. Bu, o'quvchilarning qiziqishlarini tortish va ularni qatnashishga qiziqtirishadi.

Jismoniy faoliyat va o'yinlardan foydalanish: O'quvchilarni o'quv jarayonida jismoniy faoliyatga qatnashishlari bilan diqqatlarini jalb qilishingiz mumkin. Bu, sinfda o'yinlar o'ynash, jismoniy mashqlar va tajriba olish imkoniyatlarini taqdim etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu usul o'quvchilarning diqqatini to'playdi va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qiladi.

O'quvchilarni faollashtirish: O'quvchilar faollashtirish diqqatini o'quv jarayoniga yo'naltirish oson bo'ladi. Sinfdag'i guruh ishlarini, guruh ishslashlarni va qo'llanmalarini o'rganish va amalga oshirish jarayonida, o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday faoliyatlar o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Sinf atmosferini o'zgartirish: Sinf o'rtasidagi atmosfera, o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Siz o'quvchilarning sinfga kelishlari uchun muntazam, qiziqarli va ko'ngilli bir atmosfera yaratishingiz mumkin. Ular bilan yaxshi munosabatda bo'lish, qiziqishlariga e'tibor qaratish va ularga qulay va maqsadli o'rganish imkoniyatlari taqdim etish juda muhimdir.

Individual o'quv usullarini qo'llash: Har bir o'quvchi o'zining o'ziga xos o'quv usuliga ega bo'lishi mumkin. Ba'zilariga bir xil usul yordamida o'qish mumkin, ammo boshqalarga ko'ra boshqa usullar ko'proq foyda berishi mumkin. Siz o'quvchilar bilan muloqot qilish va ularga o'zgaruvchanlik va tanlov imkoniyatlari berish orqali ularning baho vaqtini o'rghanishga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Fokus va tizimli ishlashni o'rgatish: Diqqatni rivojlantirishning muhim aspektilaridan biri ham o'quvchilarga fokuslanishni va tizimli ishlashni o'rgatishdir. Ular uchun dars jadvali va dasturlarni yaratish, vazifalarni tuzish va bajarishning tizimini o'rgatish juda muhimdir. Bu o'quvchilarga muvaffaqiyatga erishish, vaqtini samarali tarzda boshqarish va o'rghanish jarayonini yanada sodda qilishga yordam beradi.

Murakkab muammolar va mashqlar: O'quvchilarni o'quv jarayonida o'z fikrlarini ishlab chiqishga o'zgatirish uchun murakkab muammolar va mashqlardan foydalanishingiz mumkin. Ular bilan muhitni o'sish va muammolarni hal qilish, loqika va jismoniy faoliyatni rivojlantirish, savollar yaratish va tahmin qilish jarayonlarini o'rghanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

O'quv jarayonida interaktivlik va hamkorlikni o'rgatish: O'quvchilarni sinfga jalb qilishning bir boshqa usuli, ularni o'quv jarayonida interaktivlik va hamkorlikni o'rghanishdir.

Qo'shimcha tajriba va ko'nikmalar: O'quvchilarni diqqatini jalb qilish uchun qo'shimcha tajribalardan va ko'nikmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, mehnat va texnik janglash mashqlari, laboratoriya ishlari, sinf ekskursiyalari va tashkilotlar bilan hamkorlik imkoniyatlari o'quvchilarga o'rghanish jarayonini yanada qiziqarli qilishi mumkin.

Dars vaqtlarini qisqartirish: O'quvchilarning diqqatini saqlab qolish uchun dars vaqtlarini qisqartirish ham juda muhimdir. Darslar va o'quv mashg'ulotlarini samarali, ko'proq amaliyotga asoslangan va taqsimlangan shaklda tashkil etishingiz mumkin. Bu, o'quvchilarning diqqatini saqlab qolishini va o'rghanishga qiziqishlarini oshirishini ta'minlaydi.

O'quvchilarga qarshi javobgarlik berish: O'quvchilarga qarshi javobgarlik berish, ularning diqqatini oshirishning muhim qismidir. Siz o'quvchilarni o'z fikrlarini, savollarini va maslahatlarni ifodalashga qo'llab-quvvatlash, ular bilan samarali

munosabat qurish va ularning muvaffaqiyatiga qarshi javobgarlik bilan ishlash juda muhimdir.

Ushbu tavsiyalar o'quvchilarda diqqatni rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Ularni amalga oshirish uchun o'qituvchi va o'quv jarayoni sohasidagi amalda zamonaviy usullarni va ilovalarni o'rghanish va qo'llash muhimdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi ko'proq rivojlanadi. Lekin bu yoshda faoliyatlarining va xususan didaktik hamda mehnat mashg'ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, mактабдаги та'лим jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun turli mashg'ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. E. G'oziyev. Psixologiya. 1999 yil. Toskent Ilm ziyo nashri.
2. Е.И.Роюв. Настольная книга практического психолога в образовани . М. Владос. 1996.
3. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. 1992 yil. Toshkent. O'qituvchi nashri.
4. M.G.Davletshin, S.M.To'ychiyeva. Umumiy psixologiya. T-2002 y.
5. S.N.Alimxodjaeva, F.I.Haydarov, T.B.Samandarov, R.X.Valiev "Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi", Toshkent.; 2010 yil, 4-7 betlar
6. Краткий психологический словарь. М. 1985.
7. Internet saytlari - ziyonet.uz.